

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
rektori *A. Sattorov*
2024-yil 30 avgust

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANINING
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim 200000 – San‘at va gumanitar fanlar 500000 – Tabiiy fanlar
Ta‘lim sohasi:	110000 – Ta‘lim 220000 – Gumanitar fanlar 510 000 – Biologik va turdosh fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta‘lim 60110400 – Boshlang‘ich ta‘lim 60110900 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) 60111200 – Jismoniy madaniyat 60111300 – Texnologik ta‘lim 60220300 – Tarix 60510100 – Biologiya

Termiz – 2024

Fan/modul kodi MSVAX1205		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1,2,4	ECTS-kreditlar 5,0	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Media savodxonlik va axborot madaniyati	60	90	150	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – “Media savodxonlik va axborot madaniyati” fanini o'qitishdan maqsad, dunyo axborot maydonida shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ilm fanning rivoji uchun har bir soha mutaxassisi xususan, talabalar bu sohaning ijobiy jixatlarini o'zlashtirgan xolda kelgusi faoliyatida axborot texnologiyalardan o'rinli foydalanish va ilmiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish. Talabalarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo'lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi xisoblangan muloqot, ma'lumot evolyusiyasi tarixini o'rgatish, ko'nikmasini shakllantirish, refleksiv fikrlay olish, murakkab vaziyatlarda konstruktiv mantiqiy xulosa chiqara olish qobiliyatini hosil qilish, kasbiy yo'nalganlikda global axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baxolash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish fanning umummetodologik ko'nikmalaridan foydalana olish xususiyatini tarbiyalay oladigan blimlarga ega bo'lish jarayonlarini o'rganish.</p> <p>Fanning vazifasi- Ommaviy axborot vositalari va media makonga xos: “raqamli”, “ komp'yuter”, “vizual”, “texnologik”, “kommunikatsion”, “media”, “axborot”, “ommaviy madaniyat” va “texnokratiya” kabi tushunchalarni yoshlarga mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan xolda foydalanish madaniyatini va fikrlash ko'nikma va malakasini shakllantirish.</p> <p>Talabalarda fanni o'qish natijasida: ma'lumot, axborot tushunchalari evolyusiya va tarixiyligi; media va axborot madaniyati savodxonligining asosiy elementlari; axborot manbalari, yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish; media savodxonlik va axborot madaniyati haqida ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Media savodxonlik va axborot madaniyatining tadrijiyligi hamda jamiyatdagi ahamiyati</p> <p>Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasining tarixiy- tadrijiy bosqichlari. Muloqot, ma'lumot va axborot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi. Media savodxonlik va axborot madaniyatining inson hayoti hamda jamiyatdagi o'rning ma'naviy ehtiyojga aylanishi. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikatsiya vosita sifatida va foydalanish metodlari. Xat (maktub) ilk axborot almashuv shakli. Pochta, gazeta, telegraf, jurnal va radio axborot manbai sifatida. Televidenie-davr taqozosi sifatida.</p> <p>Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Media savodxonlikning mazmun va</p>				

mohiyati. Axborot madaniyati atamasi mazmun va mohiyati. Axborot olish va foydalanish metodlari. Media savodxonlik va axborot madaniyatining jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati. Xorijiy mamlakatlarning media savodxonlik va axborot madaniyatini qiyosiy tahlili.

2-mavzu. Axborotning jamiyatda tutgan o'rnini va ahamiyati

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun - mohiyati. Xabar, ma'lumot, bitim va shartnomalar. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot-inson hayotining ajralmas qismi. Axborot turlari: ijtimoiy va madaniy turmush, jamiyat siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviyligi. San'at, sport va ma'naviy hayot. Axborotning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rnini va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendentsiyalari. Medialarning qadriyatlarga tayanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Axborotlarning shaxs his-tuyg'ulariga ta'sir muammolari. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ta'sir kuchi. Media qadriyatlar. Axborotning ijtimoiy qatlamga ta'siri. Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotni ahamiyati.

Ommaviy axborot vositalarida axborot, ma'lumot (matn)lar bilan ishlash va uning ommaga ta'sirini belgilash. Axborotda adolat va xolislik prinsiplari.

3-mavzu. Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti

Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televideniya va internet jurnalistikasida o'zaro raqobat muhiti. Aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muxiti. Matbuotda so'z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy nashrlarda raqobat. Blogger va vaynerda kasbiy etiket. Axborot daromad manbaiga aylanishi. Axborotning inson ongiga ta'sir muammolari. Kasbiy etiket va etikasi.

4-mavzu: Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media zamondagi o'rnini

Bosma nashr: "The Times", "New Times", "Bloomberg", "Sabah". Radio: "Эха Москвы", "TRT" va "Amerika ovozi" teleradiokompaniyalarining axborotlari taxlili. T.Livettning "Garverd biznes rev'yu" maqolasi xaqida. Kenichi Omasning "Chegarasiz dunyo" asarining globallashuvdagi ahamiyati. "Olomoncha madaniyat" oqibatlari. Xozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining inson omiliga ta'siri muammolari. Jaxon axborot tarmog'ida fitna va ma'naviy xurujlar va ularning oqibatlari.

5-mavzu: Media maydon tuzilishi va ta'siri

Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o'ziga xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati. Media axborot yaratish va uni taxlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati. Media madaniyat. Media ta'lim. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Internet tarmoqlarining vujudga kelishi va maqsadi: "Odnoklassniki", "Telegram" "Fasebook", "Instagram", "Whatsapp" "Tik tok", "Youtube", "Twitter", "go-gulf.com", "Linkedn".

6 -Mavzu. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar

Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. An'anaviy OAV o'rnini ijtimoiy tarmoqlar egallashi. Ijtimoiy

tarmoqlarning jozibadorligi va yoshlarni o'ziga jalb etishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandasi. Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi. "Odnoklassniki", "Telegram", "Facebook", "Instagram", "Whatsapp", "Tik tok", "Youtube", "Twitter", "go-gulf.com", "Linkedn". Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari. Ijtimoiy tarmoq – bu ommaviy madaniyatning omili sifatida. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi prinsipini aniqlash va tizimli tadqiq va taxlil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funktsional bog'liqligi.

7-mavzu. Media maydonda axborot tarqatish madaniyati

Axborot maydonida ahloq va shaxs tushunchasi. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta'sir muammolari. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta'siri. "Kazino", "sport o'yinlari", "karta o'yini". Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo'lishi. Vizual olamda muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta'sir muammolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari. Axborot almashinuvining madaniy-soqial xolati va axamiyati.

8-mavzu. Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar

Axborotning shaxs va jamiyatga yo'naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy taxdidlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar.

Axborot tizimida "falsifikatsiya metodi" (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko'pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik g'oyalariga tajovuz va taxdidlar. Hozirgi dunyoda terrorism, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funktsiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari.

9-mavzu. Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy asoslari

Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Bu vositalarga qaramlik emas balki, yoshlarda to'g'ri foydalanish tushunchasini shakllantirish. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv. Inkorni inkor qonunini mediasavodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo'lishi. Internet tarmog'idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining nazariy-metodologik asoslari. Ta'limda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini qo'llash metodlari. Axborot xurujlari: etnik, irqiy, milliy, mintaqaviy, diniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan kamsitishni targ'ib etuvchi manbalarga nisbatan mantiqiy, psixologik hamda huquqiy yondashish.

10-mavzu. O‘zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari

Axborot almashinuvining milliy – mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik, ma’naviy va ruhiy zo‘ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlar. Fuqarolarning sha’ni, qadr-qimmatini va obro‘sigina nisbatan dahl qilish. Giyohvandlik vositalari, psixotrop modda va prekursorlarni targ‘ib qiluvchi saytlarga taqiq qilish haqida ma’lumot berish. Prezident asarlari, farmonlari, hukumat qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mediasavodxonligi va axborot madaniyatini himoyalaniishi. Xalqaro normalarda axborot himoya. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. “Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi” kurash bo‘yicha ShHT konsepsiyasi.

11-mavzu. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri

Kompyuterga tobeklikning to‘rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta’siri, inson hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida. Internet va kompyuter o‘yinlarining paydo bo‘lishi. Virtual tanishuvlar. Virtual o‘yinlar – yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta’siri. Virtual olam va manipulyatsiya. Kompyuter o‘yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual olamda o‘zlikni namoyon qilish– “qahramon”lik. Zo‘ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o‘yinlar: “Pubj”, “Minecraft”, “gta”, “counter-strike”, “EverQuest”, “Manhunt”, Hilmiy, Xidir, Soriy, “internet orqali bog‘lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri” bo‘yicha sosial so‘rovi.

12-mavzu. Media maydon va internet imkoniyatlari

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Bloggerlar. Vikilar. Elektron tijorat, auksion, magazin va to‘lovlar. Yangiliklar guruhi (Usenet). Internet-radio, televideniya (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining tadrijiyligi hamda jamiyatdagi ahamiyati
2. Axborotning jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati
3. Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti
4. Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media zamondagi o‘rni
5. Media maydon tuzilishi va ta’siri
6. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar
7. Media maydonda axborot tarqatish madaniyati
8. Shaxsga yo‘naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar
9. Axborot xavfsizligini ta’minlashning g‘oyaviy-nazariy asoslari
10. O‘zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari
11. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri
12. Media maydon va internet imkoniyatlari

Seminar mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada

bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mediasavodxonlikni rivojlantirish yo'llari
2. Edyuton konsepsiyasi
3. Post haqiqat nima?
4. Filmlar va ommaviy madaniyat
5. Televideniya ko'ngilochar sanoat sifatida
6. O'yinlar ijtimoiy faoliyat sifatida
7. Medialarning ijtimoiy mazmuni
8. Media madaniyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar
9. Ijtimoiy media shakllari
10. Ijtimoiy mediada tahdid va xavf-xatarlar
11. Tarmoq odob axloqi
12. Axborot matnlar bilan ishlash va media madaniyat
13. Axborot nima va uning manbalari
14. Axborot turlari va ishonchliligi
15. Media muhitda axloqiy tamoyillar
16. Media muhitda bola huquqlari
17. BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"
18. Media texnologiyalar kundalik hayotda
19. Ijtimoiy median baholash
20. Media savodxonlikni qanday baholash mumkin?
21. Siz nima uchun media savodxon bo'lishingiz kerak?
22. Taqdimot tayyorlash va taqdim etish usul va vositalari
23. Media makonda axborot taqdim etish
24. Kitob apparati bilan ishlash
25. Texnika madaniyati
26. Reklamanning ijtimoiy mazmun-mohiyati
27. Kompyuter o'yinlari – manqurtlik vosita
28. Virtual o'yinlarning asoratlari
29. Virtual tutqunlikka qarshi kurash
30. Kiberterrorizm

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- -ma'lumot, muloqot tushunchasi, evolyutsiya tarixiyligi;
- -media va axborot madaniyati savodxonligining asosiy elementlarini belgilash;
- -axborot manbalari va ehtiyojlarini aniqlash;
- -media savodxonlik va axborot madaniyatini baholash;
- -axborot (matn)ni tahlil qilish savodxonligini oshirish;
- axborot xuruji, tahid va boshqa turdagi xavfsizlikka karshi media savodxonlikka oid ma'naviy—madaniy immunitetni shakllantirish;

	<ul style="list-style-type: none"> • -yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda qaramlik hissi bilan emas, balki o'qib-o'rganishni maqsad qilishi lozim;
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslanadigan amaldagi ishlarni baholash; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda qatnashish; • kichkina guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni baholash; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni o'tkazish;
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015-94.b 2. Yahyo, Muhammad Amin, Internetdagi tahdidlardan himoya.Yordamchi o'quv qo'llanma. Movaraunnahr, 2016.-672 b 3. А.В. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г 4. Media va axborots avodxonligini shakllantirishning pedagogic jihatlar. O'quv-amaliy qo'llanma. - Extremum-press, 2017-142.Б <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ахметова Л.С. Медиаобразования и медиаграмотност: теория, методология, практика. Учебное пособие. КазГУ. 2016 г 2. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. 2010. 3. Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta'minlashda milliy segment faoliyatining so'ciologik jixatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2022. 4. Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021. 5. Shermuxamedova A.U. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendentsiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021. 6. Sudich Yu.V., Prokazin V.V. Rol socialных setey v jizni molodeji. М. 2019. 7. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013 8. Tolipov A.A. Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishning ijtimoiy mexanizmlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.

	<p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. 2. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali. 4. Prezident.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti 5. www.press-service.uz. - Prezident matbuot xizmati 6. www.Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 7. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali 8. www.uza.uz - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘ZA) 9. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
7	O‘quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>S.Eshqurbonov – TISU, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasini mudiri, dotsent v.b., tarix fanlari falsafa doktori (PhD)</p> <p>F.Rahmonqulova – TISU, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasini o‘qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Djurayeva O‘.Ch. – TerDU “Fuqarolik jamiyati” kafedrasini mudiri, t.f.f.d. (PhD).</p> <p>Xoliyorov T.Ch. – Termiz muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasini mudiri, tarix fanlari falsafa doktori (PhD).</p>